



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL**  
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI .....	18
<b>Nazarov G'ayrat Xayrullayevich</b>	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
<b>Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI .....	27
<b>Otamurodova Dildora Abdukrimovna</b>	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI .....	32
<b>Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi</b>	

# GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI



**Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Menejment fakulteti 2-bosqich talabasi  
Email: [osaidnazarova@gmail.com](mailto:osaidnazarova@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Ismailov Dilshod Anvarjonovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot global noaniqliklar sharoitida O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish modellarini empirik va institutsional jihatdan chuqurtahlil qiladi. 2021–2025-yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsuloti 7,7 foizga o'sib, 147 mlrd AQSH dollarini, tashqi savdo aylanmasi esa 81 mlrd dollarni tashkil etdi. Xizmatlar (8,5%) va sanoat (6,8%) tarmoqlari asosiy drayver bo'lsa-da, iqtisodiyotning yuqori mehnat sig'imi saqlanib qolmoqda va bu kapital intensivligini oshirishni taqozo etadi. Tadqiqot xulosalari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi maqsadlarini ro'yobga chiqarishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, Cobb-Douglas modeli, makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya, eksport diversifikatsiyasi, yashil iqtisodiyot, empirik tahlil.

**Abstract:** This research provides an empirical and institutional analysis of models for enhancing Uzbekistan's macroeconomic competitiveness amid global uncertainties. Based on 2021-2025 statistics, Uzbekistan's GDP grew by 7.7%, reaching nearly \$147 billion, with foreign trade exceeding \$81 billion. Although the services (8.5%) and industrial (6.8%) sectors act as main growth drivers, the economy remains highly labor-intensive, highlighting the need for increased capital intensity. The findings serve as a strategic guide for structural diversification, transitioning to a "Green economy," and achieving the goals of the "Uzbekistan - 2030" strategy.

**Keywords:** national economy, competitiveness, Cobb-Douglas model, macroeconomic stability, inflation, export diversification, green economy, empirical analysis.

**Аннотация:** В исследовании эмпирически и институционально анализируются модели повышения конкурентоспособности экономики Узбекистана в условиях глобальной неопределенности. По статистике 2021-2025 годов ВВП вырос на 7,7%, достигнув 147 млрд долларов США, а внешнеторговый оборот превысил 81 млрд долларов. Несмотря на то, что сфера услуг (8,5%) и промышленность (6,8%) стали главными драйверами роста, экономика сохраняет высокую трудоемкость, что требует повышения капиталоемкости. Результаты исследования служат стратегическим ориентиром для структурной диверсификации, перехода к «зеленой экономике» и достижения целей стратегии «Узбекистан - 2030».

**Ключевые слова:** национальная экономика, конкурентоспособность, модель Кобба-Дугласа, макроэкономическая стабильность, инфляция, диверсификация экспорта, зеленая экономика, эмпирический анализ.

## KIRISH

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotidagi geosiyosiy ziddiyatlar va inflyatsion beqarorlik sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini an'anaviy usullar bilan emas, balki innovatsiyalar va inson kapitali orqali ta'minlash zarurati yuzaga kelmoqda. O'zbekistonda ushbu xatarlarni yumshatish va xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlash maqsadida chuqur islohotlar amalga oshirilib, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda YAIM hajmini 160 milliard dollarga yetkazish kabi ustuvor maqsadlar belgilangan.



Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – global ziddiyatlar fonida O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining joriy holatini rasmiy statistika va huquqiy hujjatlar asosida empirik baholash hamda barqaror o‘shish modellarini ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatini o‘rganish, Cobb-Douglas funksiyasi yordamida makroiqtisodiy elastiklikni tahlil qilish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini prognozlash kabi muhim ilmiy vazifalar amalga oshiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va global beqarorlik sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, iqtisodiy o‘shishni strategik rejalashtirishda M. Porterning “Raqobat ustunligi va olmos modeli” alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu nazariya O‘zbekiston korxonalarida klasterlashuv va innovatsion raqobatni oshirish mexanizmlarini tahlil qilishda muhim metodologik baza bo‘lib xizmat qiladi.<sup>1</sup> Bu yondashuv iqtisodiyotda xomashyo eksportidan chuqur qayta ishlangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Makroiqtisodiy o‘shish drayverlarini aniqlashda neoklassik iqtisodiyotning asosi hisoblangan Cobb-Douglas ishlab chiqarish funksiyasi hanuzgacha o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Xalqaro va mahalliy tadqiqotchilardan J. Felipe, J. McCombie, ushbu funktsiyani mikroma'lumotlar tahlili orqali o‘rganib, makrodarajadagi ba'zi buxgalterik identifikliklarni tanqidiy tahlil qilgan.<sup>2</sup> Shu bilan birga, mahalliy olimlardan A. Raximbayev va boshqalar sanoat aglomeratsiyalarining hududiy o‘shishga ta'sirini aynan Cobb-Douglas sektoral modellari yordamida o‘rganib, milliy sanoatlashish jarayonlarini empirik baholagan.<sup>3</sup>

Eksport salohiyati va iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini o‘lchash borasida B. Yunusov, K. Umarmulov va E. Raximovlar O‘zbekiston oziq-ovqat hamda to‘qimachilik eksportining xalqaro darajadagi o‘rnini Balassa indeksi orqali tadqiq etgan. Bunga parallel ravishda, G. Sadullaeva va E. Muratbaeva islomiy mikromoliya va milliy brendlarni shakllantirish orqali moliya bozoridagi raqobatbardoshlikni oshirish masalalarini yoritgan. Shuningdek, inson kapitalining iqtisodiy barqarorlikdagi o‘rni va ahamiyati D. Akhmedovanning “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va modernizatsiya qilingan ta'lim tizimi integratsiyasiga doir izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar va mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, garchi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, eksport diversifikatsiyasi va klasterlashuv masalalari chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan global geosiyosiy ziddiyatlar, inflyatsion bosimlar va logistik inqirozlar fonida O‘zbekiston iqtisodiyotining kompleks raqobatbardoshligini institutsional hamda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida yaxlit baholovchi tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur ilmiy ish aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga va o‘ziga xos milliy chidamlilik modellarini o‘rganishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tizimli tahlil, mantiqiy xulosa chiqarish, iqtisodiy-matematik modellashtirish, qiyosiy tahlil, huquqiy kontent-tahlil hamda statistik ekstrapolyatsiya kabi ilmiy tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasi to‘liq ravishda O‘zbekiston Respublikasining rasmiy ochiq ma'lumotlariga hamda xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari xulosalariga tayanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti so‘nggi yillarda chuqur institutsional va tarkibiy islohotlarni boshidan kechirmoqda. Mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususi sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash, davlat ishtirokini qisqartirish hamda raqamli iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son<sup>4</sup> Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2025-yil uchun Davlat dasturi hamda iqtisodiyotni transformatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida izchil davom ettirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining konseptual asosi barqaror iqtisodiy o‘shish

1 M. Porterning raqobat ustunligi va olmos modeli: O‘zbekiston korxonalarida klasterlashuv va raqobatni oshirish

2 Felipe, J., McCombie, J., Yakubjanova, U., Suyunov, A. “Cobb-Douglas ishlab chiqarish funksiyasi va mikroma'lumotlar tahlili”, ADB Economics Working Paper va boshqa ilmiy nashrlar.

3 “Sanoat aglomeratsiyalarining hududiy o‘shishga ta'siri (Cobb-Douglas sektoral modellari)”, Iqtisodiyot va Ta'lim nashri.

4 <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>



orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan munosib o'rin olish, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, shuningdek, samarali va hisobdor davlat boshqaruvini shakllantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'zida mujassam etadi. Iqtisodiy maqsadlarning sonli ko'rsatkichlari ham aniq belgilangan bo'lib, 2030-yilga borib mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni esa 4 ming dollardan oshirish nazarda tutilgan. Shuningdek, inflyatsiyani barqaror past darajada ushlab turish, eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish, kambag'allik darajasini keskin qisqartirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish strategik vazifalar sifatida belgilangan.

Endi esa iqtisodiy o'sish modellarini ko'rib chiqsak. Avvalo, iqtisodiy o'sishni unga ta'sir etuvchi omillar - mehnat, kapital va texnologik taraqqiyot nuqtai nazaridan modellashtirish maqsadida neoklassik iqtisodiyotning poydevori bo'lgan Cobb-Douglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanildi. Model quyidagi matematik tenglama ko'rinishida ifodalanadi:

$$Y = A \cdot L^{\alpha} \cdot K^{\beta}$$

Bu yerda:

$Y$  - yalpi ichki mahsulot (yoki korxonalar darajasida ishlab chiqarish hajmi);

$L$  - mehnat resurslari (band bo'lganlar soni yoki sarflangan ish soatlari);

$K$  - jismoniy kapital xarajatlari (asosiy vositalar qiymati, kapital qo'yilmalar);

$A$  - Umumiy omil unumdorligi (Total Factor Productivity - TFP). Bu parametrgina kapital yoki mehnat bilan izohlab bo'lmaydigan, balki texnologik innovatsiyalar, institutsional sifat, inson kapitali va boshqaruv samaradorligini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkich (Solow residual);

$\alpha$  va  $\beta$  - mos ravishda mehnat va kapital bo'yicha ishlab chiqarish elastikligi koeffitsiyentlari bo'lib, agar  $\alpha + \beta = 1$  bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamiga ko'ra doimiy o'sishni (constant returns to scale) anglatadi.

Bizning tadqiqot doirasida O'zbekistonning makroiqtisodiy kesimi va xususiy firmalar darajasidagi mikroma'lumotlar tahlil qililib, kapital va mehnatning mamlakatdagi iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi baholandi. Ilmiy adabiyotlarda J. Felipe va boshqalar tomonidan Cobb-Douglas funksiyasiga nisbatan aytilgan tanqidlar (buxgalterik identifikatsiya xatosi) e'tiborga olingan holda, xulosalar faqat raqamlarga emas, balki tarkibiy jarayonlarga bog'langan holda interpretatsiya qilindi. Ushbu model shuningdek, "yashil" sektorning ish bilan bandlikka ta'sirini baholash uchun transformatsion tenglama sifatida ham qo'llanildi.

Jahon banki va XVJ kabi tashkilotlarning oldindan bergan prognozlariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyotining 2025-yilda 6-6,8 foiz atrofida o'sishi kutilgan edi. Biroq, haqiqiy empirik ma'lumotlar ushbu ko'rsatkichlar hukumat va milliy korxonalar faoliyati tufayli ijobiy tarafdagi sezilarli darajada ortig'i bilan bajarilganini ko'rsatmoqda. Statistika agentligining 2026-yilning yanvar oyida taqdim etgan yakuniy dastlabki hisobotlariga ko'ra, 2025-yil davomida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM) joriy narxlarda **1 849,7 trillion so'mga** (yilning o'rtacha almashuv kursi hisobida taxminan 147,08 milliard AQSH dollariga) yetdi. Bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan real ifodada **7,7 foizga o'sish** demakdir. E'tiborli jihati, O'zbekiston 2024-yildagi 115 milliard dollarlik YAIM ko'rsatkichidan atigi bir yil ichida salkam 30 milliard dollarlik sakrashni amalga oshirdi (1-jadval).<sup>5</sup>

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining yillik dinamikasi<sup>6</sup> (2021-2025-yillar)

Yil	YAIM hajmi joriy narxlarda (trln. so'm)	O'sish sur'ati (%)	Aholi jon boshiga YAIM (ming so'm)	Aholi jon boshiga o'sish (%)
2021	861,2	106,1 %	24 664,7	104,3 %
2022	1 041,9	103,9 %	29 226,7	103,1 %
2023	1 261,8	104,1 %	34 653,2	104,3 %
2024	1 535,4	104,5 %	41 306,7	104,4 %
2025	1 849,7	107,7 %	48 816,4	105,7 %

Jadvaldan shuni bilish mumkinki, aholi jon boshiga hisoblangan YAIM joriy narxlarda 48 816,4 ming so'mga (taxminan 3846 AQSH dollari) yetgan. Bu "O'zbekiston-2030" strategiyasidagi eng asosiy maqsad - daromadni 4000 dollarga yetkazish ko'rsatkichiga qariyb erishilganligini dalillaydi.

Makroiqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlarini aniqlash maqsadida yalpi ichki mahsulotning (YAIM) tarmoqlar kesimidagi dekompozitsion tahlili amalga oshirildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy dinamikani qaysi sektorlar faolligi ta'minlab berayotganini obyektiv baholash imkonini beradi.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi, stat.uz

<sup>6</sup> Manba: muallif ishlanmasi.



Tadqiqot natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sishning shubhasiz yetakchisiga aylanib, uning hajmi 8,5 foizga kengaygan. Mazkur tarmoqning umumiy iqtisodiy yuksalishdagi ulushi 3,9 foizlik bandni tashkil etdi. Xususan, mamlakatda axborot texnologiyalari hamda tranzit-logistika yo'laklarining jadal sur'atlarda rivojlantirilishi natijasida transport, saqlash va aloqa yo'nalishlarida 14,5 foizlik keskin sakrash kuzatildi. Shunga mutanosib ravishda, savdo, yashash hamda ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish tarmog'ida ham ijobiy dinamika saqlanib, o'sish ko'rsatkichi 12 foiz miqdorida qayd etilgan.

Ushbu tahlillarga qo'shimcha ravishda, pul-kredit siyosatini chuqur o'rganib, olib borilgan empirik kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, milliy regulyator - Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan qat'iy pul-kredit siyosati inflyatsion jarayonlarni kuchli nazorat ostiga olish imkonini bermoqda. Mazkur institutsional yondashuv va ko'rilgan operativ choralar o'zining ijobiy samarasini ko'rsatib, 2025-yilning dastlabki to'qqiz oyi yakunlariga ko'ra iste'mol bozoridagi umumiy inflyatsiya darajasi belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar doirasida, ya'ni 5,1 foiz atrofida barqaror saqlab qolindi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda iste'mol narxlari indeksi (inflyatsiya) dinamikasi tahlili (2024-2025-yillar)<sup>7</sup>

Davr (oy yakuni)	Oylik inflyatsiya (%)	Yillik inflyatsiya (o'tgan yilning mos oyiga nisbatan, %)
Aprel 2024	0,9	8,1
May 2024	2,8	10,6
Iyun 2024	-0,2	10,6
Iyul 2024	-0,3	10,5
May 2025	1,5	8,7
Iyun 2025	-0,2	8,7
Iyul 2025	-0,2	8,9
Avqust 2025	0,4	8,8

Chuqurroq tahlil shuni aniqladiki, inflyatsiya asosan bazaviy tovarlar qimmatlashishi emas, balki tartibga solinadigan ma'muriy tariflarning erkinlashtirilishi tufayli yuzaga kelmoqda. Masalan, 2025-yilda oziq-ovqat narxlari atigi 2,1 foizga, noziq-ovqat tovarlar narxlari 4,0 foizga oshgan. Bunga qarama-qarshi o'laroq, xizmatlar narxi 12,3 foizga qimmatlagan (inflyatsiyaga 2,83% ta'sir ko'rsatgan). Eng yuqori indeks (115,5%) "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz" bo'limiga to'g'ri keldi. Buni iqtisodiy talqinda to'g'ri jarayon sifatida baholash kerak: energiya resurslari bozor mexanizmlariga o'tayotgani iqtisodiyotni yashirin subsidiyalardan qutqarib, shaffof raqobatni yuzaga keltiradi.

Mamlakatning eksport va import ma'lumotlari raqobatbardoshlikning ochiq bozor ko'zgidir. 2025-yil davomida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi o'z tarixidagi eng yuqori ko'rsatkich – 81,2 milliard AQSH dollaridan oshdi (o'tgan yilga nisbatan 20,7 foiz o'sish). Bugungi kunda O'zbekiston 210 ta xorijiy mamlakat bilan bevosita savdo operatsiyalarini amalga oshirmoqda.

Makroiqtisodiy yig'ma raqamlar quyidagicha shakllandi:

Eksport hajmi: 33,8 mlrd AQSH dollari (yillik o'sish – 24 foiz).

Import hajmi: 47,4 mlrd AQSH dollari (yillik o'sish – 18,5 foiz).

Tashqi savdo saldos: -13,6 mlrd AQSH dollari.

Garchi salbiy savdo saldos iqtisodiyotdan valyuta chiqib ketishini anglatasa-da, eksportning o'sish sur'ati (24%) import o'sish sur'atidan (18,5%) barqaror ravishda o'zib ketgani yaqin yillarda balansning ijobiy tomonga o'zgarishi ehtimolini oshiradi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo dinamikasi (mln. AQSH dollari, 2023-2025-yillar)<sup>8</sup>

Davlat nomi	2023-yil	2024-yil	2025-yil	Jami savdodagi ulushi (2025, %)
Xitoy Xalq Respublikasi	13 825,7	12 673,5	17 226,7	21,2 %
Rossiya Federatsiyasi	10 156,3	11 974,1	12 985,7	16,0 %
Qozog'iston Respublikasi	4 485,6	4 462,1	4 969,6	6,1 %
Turkiya Respublikasi	3 161,1	3 037,6	3 024,5	3,7 %
Koreya respublikasi	2 368,0	2 021,2	1 737,8	2,1 %
Afg'oniston	867,5	1 138,0	1 678,5	-

7 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni asosida

8 O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi, stat.uz



Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Xitoy va Rossiya hamon O'zbekistonning asosiy xaridori va ta'minotchisi bo'lib qolmoqda (ularning umumiy ulushi 37,2 foiz).

Raqobatbardoshlikni namoyon qiluvchi eng aniq indikator tovarlar tarkibidir. Eksport qilinayotgan tovarlar ichida eng e'tiborlisi – xizmatlar eksporti bo'lib, uning hajmi jami eksportning qariyb 26,7 foizini (7,75 mlrd dollar) egallagan va 32,8 foizga o'sgan. Bunga asosan turizm (safarlar) hamda transport, telekommunikatsiya qamrab olinadi.

Sanoat tovarlari va yarim tayyor mahsulotlarda chuqur qayta ishlash amaliyoti joriy qilingan. Masalan, to'qimachilik sanoatida uzoq yillar davomida xomashyo va ip-kalava asosiy eksport tovari bo'lgan bo'lsa, 2025-yil natijalariga ko'ra eksport tarkibidagi tayyor to'qimachilik kiyimlari ulushi 51,4 foizga yetib, ip-kalava 28,5 foizga tushdi. Bu Porter modelidagi klasterlashuv samarasidir. Meva va sabzavotlar eksporti 1,72 mlrd dollar (39,7 foizga o'sish) bilan agrosektorning yuqori rentabelligini ko'rsatmoqda.

Import strukturasi esa mamlakat nima maqsadda chet eldan valyuta sarflayotganini ko'rsatadi: importning 34 foizini (eng katta ulush) mashinalar, dastgohlar va transport asbob-uskunolari tashkil etmoqda. Ya'ni mamlakat oddiy iste'mol tovarlarini emas, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun kapital (texnologiya) import qilmoqda.

Undan tashqari, O'zbekiston korxonalarini bazasida hisoblangan Cobb-Douglas modelining parametrik baholanishi natijalari shuni isbotladiki, O'zbekiston iqtisodiyoti kuchli mehnat sig'imiga ega. Modellashtirish natijasida  $\alpha=0.729$  (mehnatning hissasi) va  $\beta=0.248$  (kapitalning hissasi) ekanligi aniqlandi. Umumiy omil unumdorligi (A yoki TFP) 1,94 ga teng bo'lib chiqdi. Shuningdek, tarmoqlar kesimidagi Cobb-Douglas funksiyasi "yashil" energetika tarmog'iga yo'naltirilgan sarmoyalar (K) mehnatning boshqa sektorlardan ushbu sektorga tezroq transformatsiya bo'lishiga olib kelayotganligini va umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashini ko'rsatgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy xulosa sifatida shuni qat'iy ishonch bilan aytish mumkinki, global beqarorlik O'zbekiston kabi kuchli irodaga va taraqqiyot strategiyasiga ega davlatlar uchun iqtisodiyotni "tozalash" mexanizmi hisoblanadi. Tashqi bozorlarning beqarorligi eskirgan tizimlarni vayron qilib, shaffof, innovatsion, huquqiy kafolatlangan hamda texnologiyalar va inson kapitali gibridiga tayangan Yangi Iqtisodiyotning barpo etilishini tezlashtirmoqda.

Ushbu tadqiqot ishini muvaffaqiyatli amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilayotgan yuqori sifatli va muntazam yangilanib boriladigan ochiq statistik ma'lumotlar bazasi g'oyat muhim rol o'ynadi. Shuningdek, pul-kredit siyosati va inflyatsion kutilmalar bo'yicha tahliliy sharhlarini tizimli ravishda e'lon qilib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rahbariyati va mutaxassislariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Ayniqsa, milliy huquqiy-me'yoriy hujjatlarning to'laqonli arxivini ochiq e'lon qilib boruvchi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi (Lex.uz) elektron tizimi ham tadqiqotning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlashda beqiyos hissa qo'shdi. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga zamin yaratgan barcha mahalliy va xorijiy olimlarning akademik asarlari uchun minnatdorchilik bildiramiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti. Pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari. (cbu.uz).
3. Sadullaeva, G., & Muratbaeva, E. "Islomiy mikromoliya va milliy brendlarni shakllantirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish", O'zbekistonda iqtisodiyot istiqbollari.
4. Marketing Journal. "Korporativ sektorda moliya tizimini (daromad - xarajat - foyda) boshqarish tahlili".
5. Akhmedova, D. "Yangilangan ta'lim tizimi va O'zbekiston 2030 strategiyasi", Global Journal of Humanities.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy statistika qo'mitasi. 2021-2025-yillardagi makroiqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tashqi savdo va YAIM ko'rsatkichlari. (stat.uz rasmiy byulletenlari va press-revizlari).
7. Yunusov, B., Umarkulov, K., Raximov, E. "O'zbekiston oziq-ovqat va to'qimachilik eksportining raqobatbardoshligini Balassa indeksi orqali baholash".



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>